Tog'li va shahar hududida ta'lim oluvchi tinglovchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini taqqoslash	626
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	



Korxona va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida ish faolligini oshirish texnologiyasi	630
Muxametov Axmad Muxametovich	
Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimini O'zbekiston ta'limiga moslashtirishdagi o'rni	634
Namazova Manzura Urakovna, Nodirov Dilmurod	
Digital Reading vs. Print Reading: Effects on EFL Learners' Reading Speed and Understanding	639
Rustambekova Ozoda Dilshod kizi	
Yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini oshirishning samarali usullari	644
To'rayev Farrux Hakim o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarni dzyudo sport turi texnik harakatlariga o'rgatish texnologiyasi	647
Toshboyeva Munisa Bozor qizi	
Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralari	650
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
Ахмедов Нумон	
Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqldiy usul misolida)	661
Jo'rayeva Dilafruz Nuriddinova	
O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
Masharipova Miyassar Ichanovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
Shaxnoza To'xtiyarova	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
Xudaynazarova Ug'ilo'y Sharifovna	
Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zozxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПР	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	

DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA LOYIHALASHTIRISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti
"Aniq va tabiiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Innovatsion ta'lim sharoitida 10–11-sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda dars mashg'ulotlari loyihalashtirishining o'рни va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy loyihaviy yondashuvlarning amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: rejalashtirilgan faoliyat, loyiha, elektron ta'lim dasturlari, tayanch kompetensiya, integratsiya, loyihalashtirish tamoyillari.

Abstract: This article analyzes the role and importance of lesson design in developing the core competencies of 10th–11th grade students within an innovative educational environment. It highlights the practical significance of project-based approaches that enhance the efficiency and quality of the teaching–learning process.

Key words: planned activity, project, e-learning programs, core competencies, integration, design principles.

Аннотация: Статья посвящена анализу роли и значимости проектирования урока в развитии базовых компетенций учащихся 10–11-х классов в условиях инновационного образования. Особое внимание уделено практической ценности проектного подхода как фактора повышения эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: планируемая деятельность, проект, программы электронного обучения, базовая компетенция, интеграция, принципы проектирования.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Mamlakatimizda yuqori taraqqiyotga erishish uchun elektron raqamli ta'lim dasturi asosida bilimlar berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Elektron ta'lim dasturlarini yaratishni yo'lga qo'yib, butun aholiga elektron va raqamli ta'lim berish, ularda elektron raqamli murojaat ko'nikmalarini, telefon va kompyuterlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yo'lga qo'yilmoqda"*^[1].

Buning natijasida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish, fan, texnika va texnologiyalar integratsiyasi keskin sur'atlarda oshayotgan bir vaqtda ta'lim-tarbiya yada uzviylikni ta'minlash dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda. Bundan kutilayotgan natija – o'qitilayotgan fanlarda elektron dasturlardan amalda foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etish jarayoni amaliyotda o'z tatbiqini topgan. O'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta'minoti muammosi pedagogikaning asosiy muammolaridan hisoblanib, uning yechimi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiradi, bilimlar sifatini oshiradi, ta'limning izchilligini ta'minlaydi, ilmiyligi, tushunarilligi, tizimlilik va mobilligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarishdagi ijobiy va salmoqli o'zgarishlar to'g'risida o'quvchilarga tez, sifatli, to'liq nazariy va amaliy bilimlar berish talab etilmoqda. Ushbu vazifa, birinchi o'rinda, nazariy hamda amaliy ma'lumotlarni o'zlashtirib, ko'nikmani malakaga aylantirishning optimal varianti bo'lgan o'quv mashg'ulotlarida bajariladi. "Dars mashg'ulotining maqsadga muvofiq, namunali va samarali qilib tashkil etilishi o'quv-uslubiy ta'minotning nechog'lik mukammalligiga, shu bilan birga, o'qituvchining o'quv faniga oid bilimiga, darsni tashkil etish mahorati hamda darsdagi o'quvchilar bilan o'zaro munosabat madaniyatiga uzluksiz bog'liq. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars mashg'ulotini samarali qilib tashkil etishning yana bir turi loyihalashtirishdan iboratdir"^[2].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars mashg'ulotini o'tishning yadrosi darsning maqsadi, mazmuni, shakli, metodi, dars mashg'ulotida ishlatiladigan vositalar, o'quvchi va o'qituvchi, dars loyihalari (darsning kengaytirilgan texnologik xaritasi) kabi elementlardan iborat metodik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tarkibiy elementlar o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'lim jarayonining umumiy mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayoni bir nechta shartlarga muvofiq tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

- o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoji – ijtimoiy yoki shaxsiy;
- ta'lim olishga bo'lgan rag'bat, motiv;
- o'quvchi faoliyatining mazmunini belgilash;
- o'quvchi faoliyatini boshqarish;
- ta'lim jarayonini loyihalashtirish.

“Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan darslarda ta'lim jarayonini tashkil etishda dars mashg'ulotlari loyihalarining o'rni beqiyos. Loyihalash ta'lim jarayonini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda: pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish; natijalarni oldindan ko'ra bilish”^[3] juda muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzu bo'yicha zarur ma'lumotlarni to'plash va ularni ilmiy tahlil qilish jarayonlarini qamrab oldi. Ma'lumotlar asosan umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi dars mashg'ulotlari jarayonini kuzatish, o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, loyihalashtirishga oid mavjud metodik qo'llanmalar va ilmiy manbalarni o'rganish orqali yig'ildi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar, ochiq darslar va loyihaviy yondashuv qo'llanilgan dars texnologiyalari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, umumlalashtirish va mazmuniy tahlil usullari orqali qayta ishlanib, loyihalashtirishning ta'lim jarayoniga ta'siri, samaradorlik omillari hamda pedagogik shart-sharoitlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish, loyihasini yaratish kabi vazifalarni bajarish maqsad qilib olinadi. Haqiqatdan ham, zamonaviy ta'limda har bir o'quv mashg'ulotini ta'lim jarayonida oldindan loyihalashtirish muhim hisoblanib, ta'lim jarayonini loyihalashtirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning samarali usullaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham ijtimoiy loyihalash tez rivojlana boshladi va uning predmeti ijtimoiy obyektlar hisoblanadi. Mustaqillik davri talabidan kelib chiqib, ta'lim sohasida ham loyihalashtirish tezkor jadal-lashmoqda.


“Loyiha” so'zining asosiy ma'nosi – istiqboldagi pedagogik jarayonning yaxlit obrazi, deb izohlangan ^[4]. Demak, biror mahsulotni tayyorlash, biror binoni qurish yoki biror jarayonni o'tkazish to'g'risidagi fikrlar algoritmini amalda ishlab chiqish loyiha tushunchasini beradi. Loyihani biror mahsulotni tayyorlashdagi bajariladigan ishlar ketma-ketligi ham deb qarash mumkin. O'quv jarayonida turli fanlar haftaligi, sport bayramlari, ochiq dars mashg'ulotlari kabi tadbirlarni biror mavzuda tashkil etishga ham loyihalash deb qarash mumkin. Bunday tadbirlar loyihalash usuli orqali amalga oshiriladi.

Didaktik maqsadga olib boruvchi muammolarni topish, aniqlash va ularni ishlab chiqish texnologiyasi loyihalash usuli hisoblanadi. Loyihalash o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash faoliyatini tashkillashtiruvchi eng qulay va samarali shakllardan biridir. Loyihalashtirish “Nima qanday bo'lishi kerak?” degan savolga javob beradi. Ta'lim jarayonining loyihalarini tuzishda uning maqsadini oldindan to'g'ri belgilash muhim o'rin tutadi. Ta'lim maqsadini belgilash – ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonini loyihalashtirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda asosiy o'rin tutadi ^[5].

Demak, dars mashg'ulotlari loyihalarini tuzishda o'qituvchi vaziyatni oldindan ko'ra bilishi muhim hisoblanadi. Shuning bilan birga, o'qituvchi faoliyatida o'quv vazifalar tizimi dars mashg'ulotlarini loyihalashtirishning omillaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini loyihalashtirish o'qituvchi faoliyatidagi murakkab jarayonlardan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan dars mashg'ulotlarini loyihalashtirishda bir qator tamoyillarga tayaniladi.



Loyihalashtirishning tamoyillari quyidagilar:



1-rasm: Loyihalashtirishning asosiy tamoyillari

- 1. Markazlashtirish tamoyili.** Markazlashtirish tamoyili asosida darslarni loyihalash quyidagicha tartibda bo'ladi: darsda o'quvchi vazifasi algoritmlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish; o'quvchilar tomonidan vazifalarni bajarish usullari va vositalarni o'zlashtirish qobiliyatiga mos tanlash; o'quvchilar harakatini samarali yo'naltirish usullarini (darsda o'qituvchi vazifasi) asoslashdan iborat.
- 2. Refleksivlik tamoyili.** Darsda o'quvchining o'ziga, o'z harakatiga va olgan bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va jamoadagi hamkorlik faoliyatiga nisbatan munosabatlarni anglatadi. Refleksivlik tamoyili asosida hosil bo'ladigan dars mashg'ulotining loyihasini dars mashg'ulotining subyekti – o'quvchining motivatsion qiziqishlarini hisobga olgan holda yangi bilimlarni doimo to'g'rilab, amaliy ahamiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.
- 3. Natijaviylik tamoyili.** Dars mashg'uloti uchun qulay sharoitlarning mavjudligi, kam vaqt va kam kuch sarflash orqali namunali va samarali natijalarga erishishni bildiradi.
- 4. Ko'p omillik tamoyili.** Mavjud obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida dars mashg'uloti amalga oshadi. Bu omillarga:
 - o'qituvchi va o'quvchilarning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari;
 - ta'lim maktablarining o'rni;
 - o'quv muassasasining o'quv-moddiy ta'minoti;
 - o'qituvchilarning o'quv faniga oid bilimi va mahorati darajasi;
 - o'quv muassasasi yoki sinfdagi ma'naviy va psixologik muhit;
 - o'quvchilarning bilim olishga intilishlari;
 - guruhning intellektual salohiyati;
 - guruhning o'zaro shaxsiy munosabatlari kiradi.
- 5. O'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili.** O'quvchi maktabgacha va boshlang'ich sinfga qadam qo'rganidan boshlab, o'quvchining topshiriq bajarish harakatlari ko'lami (uy vazifasini bajarish, o'z-o'ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi.
- 6. Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili.** Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish dars mashg'ulotining namunali va samarali bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning yoshiga mosligi, rivojlanishga mosligi, o'tish talablarini hisobga olib tashkil etish imkonini beradi. Loyihalashda tahsil oluvchini o'quv harakatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim olishi, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini aniqlash kerak.
- 7. Ta'lim texnologiyasining innovatsion modeli.** Bu – belgilangan vaqt va mavjud sharoitda asosiy maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakli, vositasi, usuli, metodikasi va texnologiyasining majmuidir. "Ta'lim texnologiyasining innovatsion modeli quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:
 - o'qitish maqsadlarini aniq ifodalash;
 - nazariy va amaliy materialni tanlash hamda uni o'quvchilarga yetkazishning yo'llarini aniqlash;
 - mavzuning tayanch tushuncha va iboralarini ajratish;
 - o'qishga qiziqtirishga yo'naltirilgan usul va texnologiyalarni belgilash;



- o'quv jarayonini yakka va jamoa holda tashkil etish;
- o'quv mashg'ulotlari rejasini tuzib chiqish, unga asoslangan holda o'quv faoliyatidan oldindan kutilayotgan natijalarni aniqlash;
- kutilayotgan natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan vazifalarni belgilashdir.

O'quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o'qitish natijasida o'quvchi egallashi va u tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan harakatlar bo'lib, bu harakatlar orqali o'qituvchi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni dars mashg'ulotida qo'yilgan o'quv maqsadiga mos ekanligini bilish va haqqoniy xulosalash (baholash) imkoniga ega bo'ladi^[6]. Bunda:

- o'quvchining dastlabki bilimlari aniqlanadi;
- teskari aloqa yo'lga qo'yiladi va ta'lim vositalari – tezkor so'rov, bahs-munozara, tarqatma materiallar, o'quv topshirig'i natijalari taqdimoti baholanadi;
- loyihaviy faoliyat natijasi jadval ko'rinishida, ya'ni o'quv jarayonining innovatsion ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiriladi;
- o'quv mashg'ulotida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyasini rejalashtirish texnologik xarita ko'rinishida amalga oshiriladi;
- "o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi – har bir o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli bayoni aks etgan hujjat bo'lib, u o'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritib beradi"^[7].

Shuningdek, u o'quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova ko'rinishida rasmiylashtiradi. Texnologik xaritaning kengaytirilgan ko'rinishi esa dars mashg'uloti loyihasining asosiy mazmunini ifodalaydi.

8. **O'quv mashg'uloti loyihasini tayyorlash.** Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish hajm va mazmuni jihatidan "Eng katta", "Katta", "O'rta" va "Kichik" modullarga bo'linadi. Bu modullarning oldiga qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanib, har bir o'quv mashg'uloti ichidagi kichik modullar orqali beriladigan bilimlar orasidan tayanch tushunchalar aniqlanadi. Bu bilimlarni o'quvchilarga qaysi dars mashg'uloti turi orqali berilishi va har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va didaktik materiallarning turi hamda qo'llanish joylari ko'rsatib beriladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda har bir holatning puxta bajarilishiga erishish, o'quv jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlanayotgan jamiyatimiz axborot, raqamli yondashuv, elektron dasturlardan foydalanish va bilimlarga tayanadi. Bugungi kunda media, turli axborot va kommunikatsion texnologiyalarning turli xil shakllarining tez ommalashishi, ularning shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotimizga o'tkazayotgan ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Shu bois o'quvchilarning jamiyat hayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, ko'nikma va ko'rsatmalar zarur. Tez-tez qo'llaniluvchi "savodxonlik" atamasi bugungi kunda "raqamli", "kompyuter", "vizual", "texnologik", "kommunikatsion", "elektron muhit", shuningdek "media", "axborot" va "dasturiy ta'minot" kabi tushunchalar bilan birga qo'llanilmoqda. Bunday an'ana mazkur yo'nalishda izlanishlar olib borilishiga ortib borayotgan qiziqishdan va zamonaviy jamiyatning shiddat bilan o'zgarib borayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli Farmon.
2. Bundina Yu. M. Formirovanie professional'noy kompetentnosti studentov-dizaynerov kostyuma v universitetskom obrazovanii: dis. kand. ped. nauk. – Orenburg, 2006. – 209 s.
3. Batirova F. K., Axmedov A. K. Ta'limni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. Irrigatsiya va melioratsiya jurnali, 70–74-betlar. ISSN: 2181-8584.
4. Normurodov Sh. M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishda dars mashg'ulotlari. TDPU ilmiy xabarlar. – Toshkent, 2023. – 98–105-betlar.
5. Boltayeva Sh. O. Matematik kompetensiyalarni rivojlantirish. Science and Innovation International Scientific Journal, UIF–2022. <http://doi.org/10.528/zenodo.6983727>. – 626–627-betlar.
6. Karimov N. A. PISA–2021 tadqiqotning ustivor yo'nalishi: matematik savodxonlikni baholash. Toshkent, 2021. – 2-bet.
7. Козырев В. А. Компетентный подход в педагогическом образовании: коллективная монография / под ред. В. А. Козырева, Н. Ф. Радионовой, А. П. Тряпицыной. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.